

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARNI MILLIY HUNARLARGA YO'NALTIRISHGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

Gulchehra Safarovna Pardayeva

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi, Samarqand

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy hunarlarga yo'naltirish texnologiyalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, milliylik, tarbiya, ko'nikma, metodika, bilim, malaka.

"Yangi O'zbekiston strategiyasi"da barcha masalalar qatorida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalash vazifasi qo'yilgan. Shu jihatdan oily pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini talab darajasida rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala. Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish muammosi umumiy o'rta ta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi. "Mening orzuim", "Kim bo'lsam ekan", "Men sevgan kasb", "Kasbning yomoni yo'q", "Kasbim faxrim" degan mavzular har bir maktab bitiruvchi yigit va qiz oldida turgan asosiy muammolardan biridir. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo – chashma bu maktabdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasblar tiplarini mustaqil holda bilish (Inson-tabiati, inson-texnika, inson-badiiy timsol, inson-belgili tizim), tanlayotgan kasbning talablarini o'z shaxsiy sifatleri bilan qiyoslay olish, o'z moyilligi, qobiliyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvofiqligini to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllanishi lozim. O'qituvchining kasb-hunarga yo'naltirishdagi asosiy vazifasi – har bir bitiruvchi o'quvchini, uning kasbga va bilimga qiziqishlarini, moyillik, ehtiyojlari, atrof-muhitni, oilaviy ahvolini yaxshi va har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lishi kerak.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki metodika-bu yangiliklar asosida muntazam rivojlanib boruvchi shakllar va vositalar majmuidir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish vositalari.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya

ko'nikmasini rivojlantirish metodikasida maqbul va qulay vositalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vositalarning asosiylari quyidagilardan iborat :

- a) o'quv fanlarini o'qitish vositasi;
- b) amaliy mashg'ulotlar vositasi;
- v) to'garaklar vositasi.

O'quv fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ongida milliy g'oyaning asosiy tamoyillari singdiriladi. Bunda asosiy e'tibor nazariy bilim berishga qaratiladi. Shundan so'ng bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga milliy, ong, milliy ruh va milliy odobning nazariy asoslari bo'yicha tushunchalar beriladi. Buning natijasida ularda milliy tarbiyaning nazariy asoslari bo'yicha bilimlar majmui tarkib topadi.

Hozirgi kunda pedagogik oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa – ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish, bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligi hamda uni shakllantirish masalalari hisoblanadi. Bu masalani hal qilish uchun maktab bitiruvchilarining modeli qanday bo'lishi kerak, degan muammo ustida to'xtalish zarur. Bo'lajak mutaxassis o'qituvchilardan o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishga tayyorlashda 3 ta tarkibiy qismlarini farqlash talab etilishi mumkin:

1. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy ahamiyatiga bo'lgan sifatlar;
2. O'quvchi shaxsining rivojlanish jarayoni haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;
3. Pedagogik jarayonni tashkil etish uchun zarur bo'ladigan ko'nikma va malakalar.

Demak, o'quvchilarni kasb tanlashda yo'llash, kasb-xunarga yo'naltirish ishlarining asosiy ijrochisi maktablarda texnologiya fani o'qituvchisi zimmasiga tushadi. Shuning uchun kasb tanlashga yo'llash va texnologiya fanidan dars beradigan o'qituvchilar yuqori natijalarga, dars samaradorligiga erishishi uchun albatta quyidagilarga alohida e'tiborni qaratishlari zarur:

- zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning va ma'naviy-moddiy qadriyatlarini mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- pedagogik va innovatsion texnologiyalarning asl mohiyati va uslublarini tushinib, qo'llay bilishi; - o'quvchilarni mustaqil kasb-hunar o'rganishga, erkin kasb tanlashga sharoit yaratishi;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, o'zi ham yangi yaratuvchi yangi xilma-xil ("Kasb darsi", "Aqliy hujum", "Zinama-zina" va b.) uslublarni o'ylab topishi, amalda qo'llashi;
- an'anaviy darslar orqali o'qituvchilarning yakka tartibda (individual) ishlashga erishishi;
- test topshiriqlarni o'quvchi faoliyati darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart. Umumiy ta'lim maktablarida kasb-hunarga

yo'naltirish ishlarini boshlang'ich sinflardan boshlab quyidagi talablar qo'yilishi o`rinlidir:

- milliy g'urur – bu o'z yurtining tarixini bilish;
- ularni erkin fikrlashga tayyorlash, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish; - umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish; o'z millati va vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni hurmat qilish;
- milliy istiqlol g'oyasi va mafkura asoslariga amal qilish; - mustaqil va ijodiy fikrlash;
- ma'naviy-ahloqiy madaniyatga ega bo'lish;
- kasbiy-mehnat faoliyatida ekologik mas'uliyatni his qilish; - kompyuter va boshqa telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish;

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quv fanlari vositasida milliy tarbiya bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar ko'nikma darajasida mustahkamlanadi. Bunda suhbat, treneng va o'zaro bahslar shakllarida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy ong, milliy ruh va milliy odob ko'nikmalari mustahkamlanadi.

To'garaklar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya bo'yicha ko'nikmalari ko'lamini kengaytiriladi. Unda talabalarga milliy g'oya asoslari hamda milliy ong, milliy ruh va milliy odob negizlari bo'yicha mustaqil topshiriqlar beriladi. Bajarilgan topshiriqlar to'garaklar mashg'ulotlar talabalar tomonidan muhokama qilinadi va topshiriqlarning bajarilishi o'qituvchi tomonidan baholanadi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy tarbiya ko'nikmasi asoslari kutilgan darajada rivojlanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning laboratoriya shakli muhim metodik xususiyatlarga ega. Unga ko'ra, talabalar maxsus jihozlangan auditoriyalarda guruhlariga bo'linib, milliy ong, milliy ruh va milliy odob asoslari bo'yicha laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazishadi. O'tkazilgan tadqiqotlar talabalar ishtirokida muhokama qilinadi va ularning eng yaxshilari baholanadi. Shu jihatdan laboratoriya ishlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bir-biridan o'rganish imkoniyatlarini beradi. Bu hol ularda milliy tarbiya ko'nikmasining amaliy shakllanish jarayonini taqdim etadi.

Mustaqil ishlanmalar shakli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishdagi muhim metodik omillarida biridir. Unga ko'ra, talabalar milliy g'oya asoslari hamda milliy ong, milliy ruh va milliy odob tarkiblari bo'yicha turli tasviriy, jihozli va multimediali ishlanmalarni mustaqil bajarishadi. Bunday ishlanmalar ularning ongida ta'kidlangan ishlarning qanday darajada tarkib topganligini namoyon qiladi. Shu sababli mustaqil ishlanmalar shakli har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining milliy tarbiya ko'nikmasi qanday ko'rsatkicha ega ekanligini ko'rsatadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishda tashabbuslar shakli muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda talabalar o'z tashabbuskari asosida milliy g'oya tamoyillari hamda milliy ong, milliy ruh va milliy odob negizlarini ifoda etuvchi turli texnologik va rabototexnika ishlanmalarini yaratadi. Ularning tashabbuslari va yaratgan ishlanmalariga asosan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga milliy tabriya ko'nikmasining rivojlanganlik darajasi aniqlanadi va baholanadi. Xulosa o'rnida, hozirgi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagogik-psixologik va umumtexnik va kasb ta'limi mutaxassilari olib borayotgan ishlar salmoqli o'ringa egaligi ma'lum. Darhaqiqat, o'quvchi yoshlarning kasbiy bilimlar va ko'nikmalarini shakllantirish, ularga to'g'ri yo'nalish berish ishlari ko'proq kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar, pedagog-psixologlar zimmasiga tushadi. Shu munosabat bilan o'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirishga mas'ul mutaxasislarning quyidagi pedagogik-psixologik va umukasbiy tayyorgarligiga ega bo'lishi va kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga qo'yilgan talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish. (Monografiya). T.: Fan, 2004, - 128 b.
2. Abdukodirov A.A., Rashidov X.F. O'zluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. T.: Maktab va xayot, 2002.-220 b.
3. Bozorova S. Oliy ta'limda kasbiy yunaltirilgan o'qitish texnologiyalari. – T.: Fan, 2006, - 126 b.
4. Xolmatov P. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi. Monografiya. -T.:Fan. 2006
5. Xolmatov P. Raximov B. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi.-T.:Fan.2006.
6. Pardayeva G. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini milliy hunarlarga yo'naltirish jarayonida ijodiy faoliyat. Образование наука и инновационные идеи в мире. Vol. 22 No. 4 (2023)